

Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining

Jizzax filiali katta o'qituvchisi

magistrant_s@mail.ru

Bozorboyev Diyorbek Po'lat o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining

Jizzax filiali 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, davlat tamonidan maksimal narxning o'rnatilishi, kim manfaati uchun xizmat qilishi, bozor muvozanatini ta'minlay olishi yoki olmasligi, ijobiy va salbiy tamonlari va shu kabi yo'nalishlarga nisbatan tahlil qilingan.


Kalit so'zlar: maksimal narx, iste'molchi, talab, taklif, xufiyona iqtisodiyot, qora bozor

Mamlakatimizda so'ngi yillarda bozor muvozanatini ta'minlash, iste'molchi va tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, tovar va moliya bozorida raqobat muhitini yaratish, davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar hamda ularning strategik turlarini kamaytirish, shuningdek, ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va tabiiy monopoliyalar faoliyatini narx orqali tartibga solish, bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda "Narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo'lgan tovarlar narxlarining (tariflarining) shakllanishi hamda qo'llanilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 722-son qarorini ta'kidlab o'tish joiz hisoblanadi.

Davlat tomonidan maksimal narxning o'rnatilishi iqtisodiy tartibga solish vositalaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi iste'molchilarni haddan tashqari yuqori narxlardan himoya qilish va muayyan tovarlar yoki xizmatlarning keng ommaga yetkazib berilishini ta'minlashdir. Maksimal narx odatda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, lekin erkin bozor sharoitida narxi keskin oshishi mumkin bo'lgan mahsulotlar uchun belgilanadi, masalan, oziq-ovqat, dori-darmonlar yoki ijaraga olingan uy-joylar. Bozor iqtisodiyotida maksimal narx o'rnatilishini bu davlatning narxga aralashuvi sifatida qarashimiz mumkin. Davlat iste'molchilarni himoya qilish maqsadida tovarlar narxini belgilashda bevosita aralashadi. Aytaylik, istemolchilarni himoya qilish maqsadida tovarning narxini belgilash muvozanat narxdan (P_x) past narx o'rnatilishi bu maksimal narx (P_{max}) deyiladi. Rasmga e'tibor qilsak, davlat tamonidan maksimal narx (P_{max}) o'rnatilishi, istemolchilarga qay darajada ta'sir qilishini ko'rib chiqish mumkin. Ya'ni mahsulot narxi tushishi (P_e dan P_{max} ga) oldin P_e narxda ololmaydiganlarni P_{max} narxda olish imkoniyatini hosil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Umumiy olganda bozorda shu mahsulotga bo'lgan talabning (Q_d) oshayotganini ham kuzatishimiz mumkin.

Biroq, bunday choralarning samarasiz tomonlari ham mavjud. Agar maksimal narx bozor narxidan past bo'lsa, bu taklif va talab o'rtasidagi nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda tovar yoki xizmat yetishmovchiligi yuzaga keladi, bu esa "qora bozor" yoki noqonuniy savdoga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish kamayishi tufayli ishlab chiqarish hajmi pasayadi, bu esa iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlatning P_{max} narxda sotilsin deyishi ishlab chiqaruvchilarga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, ya'ni mahsulot narxi tushurilishi mahsulot ishlab chiqarish hajmi (Q_s) pasayishiga olib keladi. Natijada Q_d birlik va Q_s birlik orasida tovar yetishmovchiligi hosil bo'ladi. Buni biz tovar tanqisligi deymiz (rasmda bo'yalga uchburchak). Ayrim adabiyotlarda defetsit ham deyiladi. Lekin davlatning olib borayotgan siyosati ayrim qatlam istemolchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Misol keltiradigan bo'lsak, buxanka nonning ayrim vaqtlarda, ya'ni ko'p hollarda kechki paytlarda magazin, do'konlarda qomaganligini kuzatishimiz

mumkin. Sababi buxanka nonning narxi bozordagi boshqa nonlardan arzon. Arzon bo'lganligi munosabati bilan istemolchilar uni ko'p miqdorda xarid qiladi. Aynan shu o'rin bosar tovar bo'lmaydigan bo'lsa hajm(Q_d), ya'ni oluvchilar hajmi ko'p, lekin ishlab chiqaruvchilar (Q_s) juda kam. Demak buni tovar tanqisligi sifatida izohlashimiz mumkin. Bunday vaziyatlarda davlat, mahsulot yetmayaptimi, unda o'z zaxiralarini bozorga safarbar qilishi kerak bo'ladi, bunday kiritish natijasida xufiyona bozorni oldini olish mumkin. Agar bu vaziyatga davlat jim qarab turadigan bo'lsa, mahsulotga(Q_d) talab yuqori, ya'ni (Q_s) birlik mahsulotga navbat juda ko'p. Bunaqada davlatdan yashirincha qatti harakatlar sodir bo'lishi mumkin. Ya'ni qora bozorda mahsulot narxi $P_n(Q_s$ hajimni talabga tenglashturguncha davom ettiramiz) muvozanat narxdan ham balandda sotiladi. Qora bozorda narx yuqori bo'lgan paytda, o'sha narxda talab va taklif tenglashishini ko'rishimiz mumkin, Shu sababli davlat zahiralari, ya'ni xufiyona iqtisodiyot oldini olish maqsadida safarbar qiladi.



1-rasm

Xulosa qilib aytganda, maksimal narx o'rnatilishi ma'lum sharoitlarda zaruriy bo'lishi mumkin, ammo uning iqtisodiy oqibatlari ehtiyotkorlik bilan tahlil qilinishi va qo'llanishi lozim. Davlat o'rnatgan maksimal narxlar taklif va talabni muvozanatlashtirish uchun boshqa choralar bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak. Boshqa tomondan, maksimal narxning kiritilishi qisqa muddatda aholini narx oshishlaridan himoya qilishi va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam berishi mumkin. Shu sababli, davlat bunday siyosatni amalga oshirganda bozor mexanizmlariga va resurslarning taqsimlanishiga ta'sirini ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqishi kerak. To'g'ri muvozanatni topish esa samaradorlikni oshirishga va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.12.2023 yildagi "Narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo'lgan tovarlar narxlarining (tariflarining) shakllanishi hamda qo'llanilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 772-sonli qarori
2. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot: Darslik / E.I.Ergashev, I.Bakiva, Sh.Fayziyev, B.Shermuxeimedov; - T.: "Iqtisod-Moliya" 2019, 680 b.
3. Sh. Sh. Shodmonov, U. V. G'afurov. "Iqtisodiyot nazariyasi". T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005, 784 bet
4. Mikroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma/ I.A.Bakiva, X.S.Xadjayev, M.Z.Muxitdinova, Sh.Sh.Fayziyev.- Toshkent: -O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.-436 bet.
5. lex.uz - internetdagi O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

6. raqobat.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi
7. Saitov, S. (2024). Improvement of accounting and audit in road transport enterprises. SPAST Abstracts, 2(02). Retrieved from <https://spast.org/techrep/article/view/4927>
8. Saitov S. TRANSPORT KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 41-47.
9. Saitov S. JAHON IQTISODIYOTIDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING TUTGAN O 'RNI VA AHAMIYATI //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 23-31.
10. Saitov S. O 'ZBEKISTONNING TASHQI SAVDOSI: RAQAMLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 48-53.
11. Saitov S. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASIDA BUXGALTERIYA HISOB TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 32-37